

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Kengashining
2025-yil 16-apreldagi
KQ-156-V-sonli Qaroriga
1-ilova

**“Gender tenglik faoli” milliy tanlovini tashkil etish
va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Gender tenglik faoli” milliy tanlovini (keyingi o‘rinlarda tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Xotin-qizlarning jamiyatdagи rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tanlov tashkilotchilari hisoblanadi.

3. Tanlov respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda ularning hududiy va tuman (shahar) bo‘linmalari, hokimliklar, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari hamda ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda tanlov ishtirokchilari deb yuritiladi) o‘rtasida o‘tkaziladi.

4. Tanlovga Xotin-qizlarning jamiyatdagи rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi rahbarlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tanlovning ishchi organi (keyingi o‘rinlarda Ishchi organ deb yuritiladi) hisoblanadi.

2-bob. Tanlovning maqsadi

5. Tanlovni o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad quyidagilardan iborat:
har bir tashkilotda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosatni shakllantirish;

gender tenglikka erishish masalalariga jamoatchilik e’tiborini keng jalg etish va xabardorlikni oshirish;

xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga hissa qo‘sghan tashkilotlarni aniqlash va rag‘batlantirish, ularning yutuqlarini e’tirof etish hamda ilg‘or tajribasini ommalashtirish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun davlat hamda jamiyat hayotining turli sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishiga erishish.

3-bob. Tanlov komissiyalari va ularning vazifalari

6. Tanlov ishtirokchilarining hujjalarni ko‘rib chiqish, baholash va g‘oliblarni aniqlash maqsadida Respublika, hududiy va tuman (shahar) tanlov komissiyalari (keyingi o‘rinlarda tanlov komissiyalari deb yuritiladi) tuziladi.

7. Respublika tanlov komissiyasi tarkibi Senat Kengashi tomonidan, hududiy va tuman (shahar) tanlov komissiyalari tarkibi Ishchi organning hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan tasdiqlanadi.

Tanlov komissiyalari tarkibi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning hududiy va tuman (shahar) bo‘linmalari, jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy muassasalar, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining vakillaridan shakllantiriladi.

8. Tanlov komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:
tanlovning adolatli, xolis va shaffof o‘tkazilishini ta’minlash;
tanlov mezonlariga muvofiq tanlov ishtirokchilarini baholash va g‘oliblarni aniqlash;

zaruratga ko‘ra tanlov ishtirokchilarining faoliyatini joyiga chiqib o‘rganish;

tanlov natijalarini rasmiylashtirish;
tanlov bilan bog‘liq shikoyat va murojaatlarni ko‘rib chiqish;
tanlovga doir targ‘ibot va tushuntirish ishlarini tashkil etish.

9. Tanlov komissiyalarining qarorlari ularning yig‘ilish bayonlari bilan tasdiqlanadi.

4-bob. Tanlovni o‘tkazish tartibi

10. Tanlov har yili iyul – sentabr oylarida quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:
birinchi bosqich – iyul oyida tuman va shaharlar miqyosida;
ikkinci bosqich – avgust oyida birinchi bosqich g‘oliblari o‘rtasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida;
uchinchi bosqich – sentabr oyida ikkinchi bosqich g‘oliblari o‘rtasida respublika miqyosida.

11. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha o‘tkaziladi:
“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol tuman (shahar) tashkiloti”;
“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol hududiy tashkilot”;
“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol respublika tashkiloti”;
“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol hokimlik”;
“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol nodavlat notijorat tashkiloti”;
“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol tadbirkorlik subyekti”;
“Gender tenglikni targ‘ib qilishda eng faol ommaviy axborot vositalari”.

12. “Gender tenglikni ta’minlashda eng faol respublika tashkiloti” nominatsiyasi bo‘yicha tanlov uchinchi bosqichdan boshlab o‘tkaziladi.

13. Tanlov ishtirokchilari nominatsiyalardan kelib chiqqan holda tanlovda qatnashadi va ular ushbu Nizomning 1 – 5-ilovalaridagi baholash mezonlariga muvofiq baholanadi.

5-bob. Tanlov komissiyalariga hujjatlarni taqdim etish tartibi

14. Tanlov tashkilotchilari tanlov o‘tkazilishi haqida ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon beradi.

15. Tanlov ishtirokchilari tanlovda qatnashish uchun tegishli tanlov komissiyalari nomiga ushbu Nizomning 1 – 5-ilovalaridagi baholash mezonlari bo‘yicha materiallarni ilova qilgan holda maxsus elektron manzil orqali ariza taqdim etadi. Belgilangan muddatdan keyin topshirilgan arizalar qabul qilinmaydi.

16. Ariza taqdim etgan barcha tanlov ishtirokchilari haqidagi materiallar Ishchi organ va uning hududiy, tuman (shahar) bo‘linmalari tomonidan umumlashtirilib, tanlov komissiyalariga yuboriladi.

17. Tanlov tashkilotchilari taqdim etilgan materiallarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirishi mumkin.

18. Tanlovda ishtirok uchun taqdim etilgan materiallar qaytarib berilmaydi.

6-bob. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

19. Har bir nominatsiya bo‘yicha bittadan g‘olib aniqlanadi. Agar tanlov ishtirokchilarining natijalari teng bo‘lgan taqdirda bir nechta tanlov ishtirokchilari nominatsiya g‘olib deb e’tirof etilishi mumkin.

20. Baholash mezonlariga muvofiq nomzodlar aniqlanmagan taqdirda tegishli nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar belgilanmaydi.

21. Tanlov g‘oliblari tegishli nominatsiya bo‘yicha diplom, statuetka hamda sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

22. Tanlov g‘oliblariga taqdim etiladigan sovg‘alarning miqdori Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi raisi bilan kelishiladi.

7-bob. Tanlovni moliyalashtirish manbalari

23. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tanlovning tuman (shahar) va hududiy bosqichlari g‘oliblarini mahalliy budgetning qo‘srimcha manbasi mablag‘lari va homiylik mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlaydi.

Respublika bosqichi uchun talab etiladigan zarur mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi respublika budgeti (shu jumladan respublika budgeti qo‘srimcha manbalari) hisobidan ajratiladi.

24. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar, jismoniy shaxslar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovni tashkil etish va o‘tkazishda homiylik qilishi mumkin.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Tanlov natijalaridan norozi bo‘lgan tanlov ishtirokchilari tanlov natijalari e’lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni davomida tegishli komissiyalarga appellatsiya arizasini berish huquqiga ega.

26. Apellatsiya arizasi besh ish kunida ko‘rib chiqilib, natijasi bo‘yicha arizani qanoatlantirish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi va qaror tanlov ishtirokchisiga yuboriladi.

27. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

28. Ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining tegishli qarori bilan kiritiladi.

“Gender tenglik faoli” milliy
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ilova

**“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol tuman (shahar) tashkiloti”,
“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol hududiy tashkilot” va “Gender
tenglikni ta’minlashda eng faol respublika tashkiloti” nominatsiyalari
bo‘yicha ishtirokchilarни baholashga doir mezonlar**

1. Tashkilotda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengash faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi va faoliyatining natijadorligi.
2. Tashkilotda gender tenglik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va loyihalarning ijtimoiy ahamiyati hamda o‘ziga xosligi.
3. Ishga qabul qilishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratilganligi.
4. Xotin-qizlar va erkaklarning sog‘lig‘ini saqlashni ta’minlaydigan, xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilganligi.
5. Tashkilot rasmiy veb-saytida gender tenglik sahifasining mavjudligi va materiallar bilan yangilab borilganligi.
6. Tashkilot tomonidan gender tenglik bo‘yicha o‘tkazilgan mahalliy va xalqaro tadbirlar.
7. Tashkilotda gender tenglik bilan bog‘liq statistik ma’lumotlar va infografikalarning mavjudligi.
8. Xodimlar kasbiy mahoratlarini oshirib borishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar.
9. Tashkilotning o‘z yo‘nalishidan kelib chiqib, xotin-qizlar va erkaklarning huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirgan ishlar.
10. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va og‘ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar va erkaklarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar.

*Izoh: yuqorida mezonlar respublika darajasidagi tashkilotlar uchun
qo‘llanilganda tizim tashkilotlaridagi faoliyat ham inobatga olinadi.*

“Gender tenglik faoli” milliy
tanlovini tashkil etish va o’tkazish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ilova

**“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol hokimlik” nominatsiyasi
bo‘yicha ishtirokchilarni baholashga doir mezonlar**

1. Hokimlik tizimidagi rahbar va xodimlar soniga nisbatan gender tenglik ta’minlanganligi.
2. Viloyat, tuman va shahar miqyosida rahbarlik lavozimida ishlayotgan xotin-qizlar ko‘rsatkichi (foizi).
3. Xotin-qizlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanganligi va ularga moddiy yordam ko‘rsatilganligi.
4. Xotin-qizlar va erkaklar uchun kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirishda teng imkoniyatlar yaratilganligi.
5. Barcha tashkilot va idoralarda ishga kirish va ishdan bo‘shatishda gender tenglik bilan bog‘liq qonun buzilishi holatlarining mavjud emasligi.
6. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlarini ta’minlash va ijtimoiy himoya qilish qoidalarining aks ettirilganligi.
7. Gender tenglik bo‘yicha aholi xabardorligini oshirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilganligi.
8. Hokimlik tizimlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashlar tashkil etilganligi va faoliyatining natijadorligi.

“Gender tenglik faoli” milliy
tanlovini tashkil etish va o’tkazish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga
3-ilova

**“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol nodavlat notijorat tashkiloti”
nominatsiyasi bo‘yicha ishtirokchilarni baholashga doir mezonlar**

1. Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirishga, erkaklar bilan teng ravishda xotin-qizlarning ijtimoiy hamda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga doir loyiha va chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etganligi.

2. Xotin-qizlar va erkaklar uchun bandlik sohasida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga, oilalar uchun ijtimoiy xizmatlar tarmog‘ini yaratishga ko‘maklashilgani.

3. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtiroki.

4. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy muassasalar va ta’lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi.

5. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar madaniyatini shakllantirishga qaratilgan o‘quv, axborot-ma’rifiy tadbirlarining amalga oshirganligi.

6. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni o’tkazishda davlat organlariga ko‘maklashganligi.

“Gender tenglik faoli” milliy
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga
4-ilova

**“Gender tenglikni ta’minlashda eng faol tadbirkorlik subyekti”
nominatsiyasi bo‘yicha ishtirokchilarni baholashga doir mezonlar**

1. Maslahat-kengash faoliyati yo‘lga qo‘yilganligini va uning samaradorligi.
2. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish choralarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarning huquqlarini teng darajada ta’minlaydigan qoidalar aks ettirilganligi.
3. Ishga qabul qilishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratilganligi.
4. Turli lavozimlarda ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbati.
5. Lavozim ko‘tarilishida, rahbarlik lavozimlarini egallash uchun tanlovda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilganligi hamda qayta tayyorlash va malaka oshirishda teng imkoniyatlar yaratilganligi.
6. Xotin-qizlar va erkaklar mehnatiga haq to‘lashda tengsizlik mavjud emasligi hamda ular ishining sifatini baholashda teng yondashuv yaratilganligi.
7. Oilani ijtimoiy himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bolali ayollar va erkaklar foydalana oladigan amaliyotni joriy etish va rivojlantirish, homilador hamda emizikli onalar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilganlik holati.
8. Xotin-qizlar va erkaklarning hayot faoliyatini hamda sog‘lig‘ini saqlashni ta’minlaydigan xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilganligi.

“Gender tenglik faoli” milliy
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga
5-ilova

**“Gender tenglikni targ‘ib qilishda eng faol ommaviy axborot vositalari”
nominatsiyasi bo‘yicha ishtirokchilarini baholashga doir mezonlar**

1. Gender tenglik, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosati, huquqiy islohotlar, yangilanishlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilganligi.
2. Ommaviy axborot vositalarida yoritilgan materiallarda gender tenglik masalalari turli sohalarda (ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, huquq va h.k.) ko‘tarilganligi.
3. Materiallarda jamiyatda mavjud bo‘lgan gender tengsizlik holatlarini tanqidiy tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiya va yechimlar mavjudligi.
4. Gender stereotiplarga qarshi kurashish va jinsiga qarab kamsitilishga qarshi turishga qaratilgan kontent mavjudligi.
5. Huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan materiallarning yoritilishi.
6. Qonun chiqaruvchi organ va hukumat vakillari, faollar, ekspertlarning gender masalalari bo‘yicha fikr-mulohazalarining yoritilganligi.
7. Muayyan maqola, materiallar, ko‘rsatuv yoki chiqish natijasida ijtimoiy fikrning shakllanishiga yoki muammolarning hal etilishiga ta’sir darajasi.
8. Gender tenglik mavzusida onlayn so‘rovnomalar o‘tkazilganligi.
9. Axborotning vizual, multimedia va interaktiv yechimlar bilan boyitilganligi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Kengashining
2025-yil 16-apreldagi
KQ-156-V-sonli Qaroriga
2-ilova

**“Gender tenglik faoli” milliy ko‘rik-tanlovini tashkil etish
va o‘tkazish bo‘yicha Respublika komissiyasi
TARKIBI**

- | | |
|--|--|
| 1. Kozixonova
Orzигул Муидиновна | – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi, <i>Komissiya raisi</i> |
| 2. Kadirxanova
Malika Akbarovna | – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi, <i>Komissiya raisi o‘rinbosari</i> |
| 3. Nurmatova
Mukarram Ahmedovna | – O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisining o‘rinbosari, <i>Komissiya raisi o‘rinbosari</i> |
| 4. Tulyakov
Eldor Sobirjonovich | – “Taraqqiyot strategiyasi” markazi direktori |
| 5. Ishanxodjayev
Kamoliddin Nuriddinovich | – O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Kengashi raisi |
| 6. Rixsiyeva
Gulchexra Shovkatovna | – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori |
| 7. Shirinova
Mavlyudaxon Rasulovna | – “Sabr” Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi direktori, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi a’zosi |
| 8. Soatova
Shahnoza Mirzaraximovna | – “Shahnoza Soatova blogi” asoschisi, jamoatchilik faoli |
| 9. Urazova
O‘g‘iloy Ashuraliyevna | – O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i, <i>Komissiya kotibi</i> |

Izoh: Komissyaning a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Kengashining
2025-yil 16-apreldagi
KQ-156–V-sonli Qaroriga
3-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining
2022-yil 27-apreldagi “Yil ayoli” va “Gender tenglik faoli” milliy
tanlovlari o‘tkazish to‘g‘risida”gi KQ-340–IV-sonli Qaroriga
kiritilayotgan o‘zgartishlar**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 27-apreldagi “Yil ayoli” va “Gender tenglik faoli” milliy tanlovlari o‘tkazish to‘g‘risida”gi KQ-340–IV-sonli Qarorining:

Qaror nomidagi “«Yil ayoli» va «Gender tenglik faoli» milliy tanlovlari” degan so‘zlar “«Yil ayoli» milliy tanlovini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

1-bandidagi “, «Gender tenglik faoli» milliy tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq, «Gender tenglik faoli» milliy ko‘rik-tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Respublika komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2-bandidagi “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi bilan birgalikda «Yil ayoli» va «Gender tenglik faoli» milliy tanlovlari” so‘zleri “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda “«Yil ayoli» milliy tanlovi” so‘zleri bilan almashtirilsin;

4-bandidagi “tanlovlari” so‘zi “tanlov” so‘zi bilan almashtirilsin.

2- va 3-ilovalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.